

MADANIY NUTQ VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY OMILLAR

Xakimova Ro'zigul

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb-hunar maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

+998911269653

Annotatsiya: *Nutq madaniyati individualdir. Ona tilidan to'g'ri foydalanish shaxsning o'ziga xos uslub tuyg'usining, to'g'ri va yetarli darajada rivojlangan estetik didning mavjudligini nazarda tutadi, bu esa shaxsning nutq madaniyati va til madaniyatining yangi darajasini shakllantirishning zaruriy shartidir.*

Kalit so'zlar: *Nutq madaniyati, nutqni shakllantiruvchi omillar, ona tili, lingvistik nazariya, nutq obykti, nutq ko'rinishi, nutq adresati.*

Annotation: *the culture of speech is individual. The correct use of the native language implies the presence of an individual's own sense of style, correct and sufficiently developed aesthetic taste, which is a prerequisite for the formation of a new level of the personality's speech culture and language culture.*

Keywords: *speech culture, factors that shape speech, Native Language, linguistic theory, object of speech, speech appearance, address of speech.*

“Nutq madaniyati” muammosi tilshunoslarning eng murakkab va dolzarb muammolaridan biridir. Inson taraqqiyotini til va madaniyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Nutq — [tilning](#) fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng karakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroqtil tushunchasiga qaramaqarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulqatvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya'ni gapirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalarda yordamida qayd etiladigan va qayta takrorlanadigan) artikulyasiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi.

Asl nutq („tashqi nutq“) bilan bir qatorda ichki nutq ham bor. U so'zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuv qo'llanmagan holda, faqat ovozli nutqdagi so'zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan ak/shy jarayonlar tarzida amalga oshadi. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan

farqlanadi. Nutqning monologik (qarang [Monolog](#)) va dialogik (qarang [Dialog](#)) turlari mavjud.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi".

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir.

XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Suhbatdoshlar va nutq so'zlovchilar turli xil nutqiy sharoit, vaziyatda til birliklaridan har xil foydalanadilar. Natijada o'z nutqini shakllantiradi. Nutqni idrok qilish va shakllantirish sharoiti bilan bog'liq omillar esa quyidagilardan iborat:

1. Munosabat sharoitining rasmiylik va norasmiylik darajasi. Ma'lumki, rasmiylik kishiga majburiyat yuklaydi, natijada u har bir aytadigan fikrini o'ylab, mantiqiy izchillik bilan fikr yuritadi. Bunda har doim kitobiy nutq shakllariga murojaat qilinadi. Narasmiy sharoitda suhbatdoshlar, nutq so'zlovchilar o'zlarini erkin tutadilar, erkin fikrlaydilar va bunda so'zlashuv nutqi shakllariga murojaat qiladilar.

2. Nutqning shakllanishi va yashash shakli. Nutq bir-biri bilan doimo bog'liq bo'lgan yozma va og'zaki shaklda namoyon bo'ladi. Tarixan og'zaki shakli birlamchi, yozma shakl ikkilamchidir. Og'zaki nutq o'zaro bevosita aloqa jarayonida hukmron shakl sanaladi. Og'zaki nutq nutqiy ifodalilikka boy bo'lib, u yozma nutqda har doim o'z ifodasini topavermaydi. Yozma nutq mantiqiy nutq bo'lib, uning shakllanishi sekin kechadi va oldindan durustroq o'ylashni talab qiladi.

3. Suhbatdoshlarning munosabat darajasi. Suhbatdoshlarning o'zaro aloqasi rasmiy va norasmiy holatda kechadi. Ana shu aloqa bevosita va bilvosita tarzda yuz beradi. Bevosita nutqiy aloqa jarayoni to'liq va ikki tomonlama munosabat asosida yuz beradi. Bevosita

aloqa jarayonida og‘zaki nutq shakllaridan foydalanish imkoniyati ustun darajadadir. Bilvosita aloqa esa majlisda so‘zlash, radio va televideniye orqali gapirish, plastinka va magnit tasma-siga yozilgan so‘zni eshitish orqali zohir bo‘ladi. Bilvosita aloqa jarayonida yozma nutq shakllaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

4. Nutq ob'ekti xarakteri. Nutq jarayonida nutq sub'ekti yakka, ko‘plik va abstrakt xarakterda bo‘ladi. Nutq sub'ekti yakka shaxs sifatida suhbatdoshlar bilan bevosita muloqotda bo‘lganda og‘zaki nutq birliklaridan ko‘proq foydalaniladi. Nutq sub'ekti jamlikni ifodalaganda publitsistika uslubi nutqiy shakllaridan foydalaniladi. Ilmiy nutqda abstrakt xarakterdagi fikrlar bayon etiladi.

5. Nutq adresatining xarakteri. Nutqni shakllantirishda ishtirok etuvchi adresat ham yakka, jamlik va abstrakt xarakterda bo‘ladi. Yakka adresat so‘zlashuv nutqi uchun, jamlik publitsistik nutq uchun, abstrakt adresat ilmiy va rasmiy nutq uchun xarakteridir.

6. Nutq ko‘rinishi. O‘zaro nutqiy aloqada nutqning ikki ko‘rinishi: dailog va monolog mavjud. Dialog suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqidir. Monolog so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglashi va javob berishi nazarda tutilmaydigan nutqdir. Dialog so‘zlashuv nutqini, monolog kitobiy nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

7. Nutqqa maxsus tayyorgarlik ko‘rilganligi darajasi. Maxsus tayyorgarlik ko‘rilmay so‘zlangan nutq so‘zlashuv nutqini, maxsus tayyorgarlik ko‘rib fikrni ifodalash kitobiy nutqni shakllantiradi.

8. Nutqiy aloqada ekstralingvistik birliklarning faolligi darajasi. Nutqni tushunish va shakllantirishda ekstralingvistik omillar muhim rol o‘ynaydi. Bu narsa yozma nutqqa nisbatan og‘zaki nutqda ustun darajada namoyon bo‘ladi.

REFERENCES:

1. Abdullayeva B.A. O‘zbek tili va nutq madaniyati: darslik. Samarqand: Ilm-fan, 2019.
2. Begmatov E., Qung‘urov R., Tojiev Y., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.: O‘qituvchi, 1992.
3. Psixologiya. M. 1984. S.262.
4. Axmanova O.S. jcherki po obhey I russkoy leksikologii. M.: 1957. S.18.
5. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 9б.